

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**OLIV TA‘LIM DAN KEYINGI TA‘LIM JARAYONLARI
SAMARADORLIGINI BAHOLASH BO‘YICHA SO‘ROVNOMA
NATIJALARI YUZASIDAN TAHLILIV HISOBOT**

Tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik jarayonlari tahlili

1. Kirish

Mazkur tahliliy hisobot oliy ta'limdan keyingi ta'lim, tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik jarayonlari samaradorligini baholash maqsadida o'tkazilgan so'rovnomada natijalari asosida tayyorlandi. So'rovnomada jami 146 nafar respondent ishtirok etgan bo'lib, ular ilmiy axborot resurslaridan foydalanish, dissertatsiya mavzusini shakllantirish, ilmiy rahbarlik, maqola tayyorlash va nashr jarayoni, normativ-huquqiy axborot, hujjat aylanishi, yuklama va umumiy qoniqish masalalari bo'yicha fikr bildirgan.


Tahlilda 25 ta savol bo'yicha javoblar miqdoriy baholandi. Baholashda "juda yuqori" javobi 100 ball, "yaxshi" 75 ball, "o'rtacha" 50 ball, "past" 25 ball va "juda past/qoniqarsiz" 0 ball sifatida qabul qilindi. Qiyinchilik, muammo va yetishmayotgan omillarni aniqlashga qaratilgan savollarda indeks teskari hisoblanib, yuqori indeks muammolar nisbatan kamroq ekani sifatida talqin qilindi.

2. Umumiy natijalar

So'rovnomada bo'yicha umumiy indeks 65.9 ballni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich doktorantura va mustaqil izlanuvchilik jarayonlarida umumiy holat ijobiy ekanini, biroq ayrim yo'nalishlarda tizimli takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.


Eng yuqori baholangan yo'nalishlar ilmiy rahbar bilan hamkorlik, ilmiy rahbar maslahatlarining amaliy ahamiyati, ilmiy rahbarlik samaradorligi, daraja.ilmiy.uz platformasidan foydalanish qulayligi hamda doktorantura dasturidan umumiy qoniqish bilan bog'liq bo'ldi.

Nisbatan pastroq ko'rsatkichlar ilmiy maqola tayyorlashdagi qiyinchiliklar, dissertatsiya jarayonida uchrayotgan muammolar, ilmiy faoliyat uchun yetishmayotgan omillar, ma'muriy va byurokratik jarayonlarning optimalligi hamda hujjat aylanishi soddaligi yo'nalishlarida kuzatildi.



3. Savollar bo'yicha umumlashtirilgan jadval

№	Savol mazmuni	Juda yuqori/yaxshi %	O'rtacha %	Past/qoniqarsiz %	Indeks	Talqin
1	Университет кутубхонасида халқаро илмий маълумотлар базалари (Scopus, Web of Science ва бошқалар)га кириш имкониятлари қай даражада таъминланган?	67.1%	26.0%	6.8%	67.6	O'rta
2	Электрон илмий адабиётлар (журналлар, монографиялар, диссертациялар)дан фойдаланиш имкониятлари қай даражада етарли?	66.1%	26.4%	7.5%	68.2	O'rta
3	Кутубхона ахборот-хизмат кўрсатиш тизимининг самарадорлиги қай даражада?	70.9%	22.9%	6.2%	69.3	O'rta
4	Илмий манбаларни излаш ва танлаш жараёнида қийинчиликлар қай даражада кузатилади?	40.4%	40.8%	18.8%	44.8	E'tibor talab qiladi
5	Диссертация мавзусини шакллантириш жараёнида илмий-методик кўллаб-қувватлаш қай даражада таъминланди?	70.9%	24.3%	4.8%	70.5	O'rta
6	Илмий тадқиқот олиб бориш учун мавжуд моддий-техник база қай даражада етарли?	68.5%	23.3%	8.2%	67.9	O'rta
7	Тадқиқот инфратузилмаси (лаборатория, архив, маълумотлар базаси ва бошқалар) қай даражада самарали фойдаланилмоқда?	66.1%	27.1%	6.8%	67.0	O'rta
8	Илмий тадқиқот методологияси бўйича билим ва кўникмаларингиз қай даражада етарли?	66.8%	31.2%	2.1%	69.4	O'rta
9	Илмий раҳбар билан ўзаро ҳамкорликнинг мунтазамлиги қай даражада таъминланган?	86.6%	12.0%	1.4%	81.6	Yuqori
10	Илмий раҳбар томонидан бериладиган маслаҳат ва тавсияларнинг амалий аҳамияти қай даражада?	86.6%	12.7%	0.7%	71.3	O'rta
11	Илмий раҳбарлик жараёнининг умумий самарадорлиги қай даражада баҳоланади?	83.2%	15.4%	1.4%	80.1	Yuqori
12	Илмий мақола тайёрлаш жараёнида қийинчиликлар қай даражада кузатилади?	35.3%	42.1%	22.6%	46.2	E'tibor talab qiladi
13	Илмий журнал танлаш бўйича маслаҳат ва йўриқномалар қай даражада мавжуд?	67.8%	25.3%	6.8%	69.3	O'rta
14	Илмий мақолаларни нашр қилиш жараёнининг шаффофлиги ва тушунарлилиги қай даражада?	70.2%	26.4%	3.4%	70.0	O'rta
15	daqa.ilmiy.uz платформасидан фойдаланиш қулайлиги қай даражада?	74.0%	19.2%	6.8%	73.5	O'rta
16	Диссертация жараёнига оид меъёрий-ҳуқуқий ва ташкилий маълумотларнинг очиклиги қай даражада таъминланган?	70.5%	24.7%	4.8%	70.2	O'rta
17	Хужжат айланиши ва топшириш жараёнларининг соддалиги қай даражада?	56.8%	31.8%	11.3%	63.6	O'rta
18	Диссертация ишини белгиланган муддатларда бажариш имкониятлари қай даражада реал?	66.1%	28.4%	5.5%	68.3	O'rta
19	Ўқув, илмий ва ташкилий юктамалар ўртасидаги мувозанат қай даражада таъминланган?	64.7%	27.1%	8.2%	67.2	O'rta
20	Маъмурий ва бюрократик жараёнлар даражаси қай даражада оптимал деб ҳисобланади?	49.0%	34.6%	16.4%	59.3	E'tibor talab qiladi
21	Докторантура таълим дастурининг умумий самарадорлиги қай даражада баҳоланади?	71.9%	25.3%	2.7%	71.1	O'rta
22	Дастур доирасида яратилган шароитлар диссертация ишини бажаришни қай даражада енгиллаштиради?	65.1%	30.5%	4.5%	68.9	O'rta
23	Дастурдан умумий қониқиб даражангиз қандай?	70.9%	27.1%	2.1%	70.3	O'rta
24	Диссертация ишини бажариш жараёнида дуч келадиган асосий муаммоларни кўрсатинг.	30.1%	55.5%	14.4%	46.1	E'tibor talab qiladi
25	Илмий фаолиятни самарали ташкил этиш учун қайси омиллар етишмаяпти деб ҳисоблайсиз?	36.3%	50.0%	13.7%	44.7	E'tibor talab qiladi



4. Yo'nalishlar kesimida batafsil tahlil

4.1. Axborot-resurs markazi va ilmiy axborot resurslari

Mazkur yo'nalish bo'yicha o'rtacha indeks 62.5 ballni tashkil etdi. Respondentlar universitet Axborot-resurs markazisida xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari, elektron ilmiy adabiyotlar va axborot-xizmat ko'rsatish tizimi imkoniyatlarini asosan ijobiy baholagan. Shu bilan birga, ilmiy manbalarni izlash va tanlash jarayonidagi qiyinchiliklar o'rtacha darajada saqlanib qolayotgani ilmiy axborot savodxonligi bo'yicha amaliy seminarlar zarurligini ko'rsatadi.

Savol	Juda yuqori/yaxshi %	Past/qoniqarsiz %	Indeks
1	67.1%	6.8%	67.6
2	66.1%	7.5%	68.2
3	70.9%	6.2%	69.3
4	40.4%	18.8%	44.8

4.2. Dissertatsiya mavzusi va tadqiqot infratuzilmasi

Mazkur yo'nalish bo'yicha o'rtacha indeks 68.7 ballni tashkil etdi. Dissertatsiya mavzusini shakllantirishda metodik ko'mak, mavjud moddiy-texnik baza va tadqiqot infratuzilmasi ijobiy baholangan. Biroq laboratoriya, arxiv, ma'lumotlar bazasi va metodologik tayyorgarlik bo'yicha imkoniyatlarni yanada tizimlashtirish tadqiqot samaradorligini oshiradi.

Savol	Juda yuqori/yaxshi %	Past/qoniqarsiz %	Indeks
5	70.9%	4.8%	70.5

6	68.5%	8.2%	67.9
7	66.1%	6.8%	67.0
8	66.8%	2.1%	69.4

4.3. Ilmiy rahbarlik samaradorligi

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha indeks 77.7 ballni tashkil etdi. Ilmiy rahbar bilan hamkorlik, maslahatlarning amaliy ahamiyati va rahbarlik jarayonining umumiy samaradorligi so‘rovnomadagi eng kuchli yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. Bu doktorantlar va izlanuvchilar uchun ilmiy rahbarlik tizimi faol ishlayotganini ko‘rsatadi.

Savol	Juda yuqori/yaxshi %	Past/qoniqarsiz %	Indeks
9	86.6%	1.4%	81.6
10	86.6%	0.7%	71.3
11	83.2%	1.4%	80.1

4.4. Ilmiy maqola va nashr jarayoni

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha indeks 61.9 ballni tashkil etdi. Ilmiy maqola tayyorlashda qiyinchiliklar nisbatan ko‘proq qayd etilgan. Jurnal tanlash bo‘yicha maslahatlar va nashr jarayonining shaffofligi ijobiy baholangan bo‘lsa-da, maqola yozish, xalqaro jurnal talablari, plagiat tekshiruvi va tahrir jarayonlari bo‘yicha mentorlikni kuchaytirish zarur.

Savol	Juda yuqori/yaxshi %	Past/qoniqarsiz %	Indeks
12	35.3%	22.6%	46.2
13	67.8%	6.8%	69.3
14	70.2%	3.4%	70.0

4.5. Platforma, normativ axborot va hujjat aylanishi

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha indeks 69.1 ballni tashkil etdi. daraja.ilmiy.uz platformasidan foydalanish qulayligi va dissertatsiya jarayoniga oid normativ axborot ochiqligi yaxshi baholangan. Hujjat aylanishi va topshirish jarayonlarining soddaligi bo‘yicha esa ayrim respondentlar o‘rtacha yoki past baho bergan, bu jarayonlarni raqamlashtirish va yo‘riqnomalarni soddalashtirish zarurligini bildiradi.

Savol	Juda yuqori/yaxshi %	Past/qoniqarsiz %	Indeks
15	74.0%	6.8%	73.5
16	70.5%	4.8%	70.2
17	56.8%	11.3%	63.6

4.6. Muddat, yuklama va ma‘muriy jarayonlar

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha indeks 65.0 ballni tashkil etdi. Dissertatsiyani belgilangan muddatlarda bajarish imkoniyati va o‘quv, ilmiy hamda tashkiliy yuklamalar muvozanati asosan ijobiy baholangan. Shu bilan birga, ma‘muriy va byurokratik jarayonlar optimalligi eng ko‘p takomillashtirish talab qiladigan yo‘nalishlardan biri sifatida ajralib turadi.

Savol	Juda yuqori/yaxshi %	Past/qoniqarsiz %	Indeks
18	66.1%	5.5%	68.3
19	64.7%	8.2%	67.2
20	49.0%	16.4%	59.3

4.7. Dastur samaradorligi va umumiy qoniqish

Mazkur yoʻnalish boʻyicha oʻrtacha indeks 70.1 ballni tashkil etdi. Doktorantura taʼlim dasturining umumiy samaradorligi, dastur doirasida yaratilgan sharoitlar va respondentlarning umumiy qoniqish darajasi barqaror ijobiy koʻrsatkichlarga ega. Bu oliy taʼlimdan keyingi taʼlim jarayonlari umumiy maqsadlariga mos ishlayotganini koʻrsatadi.

Savol	Juda yuqori/yaxshi %	Past/qoniqarsiz %	Indeks
21	71.9%	2.7%	71.1
22	65.1%	4.5%	68.9
23	70.9%	2.1%	70.3

4.8. Asosiy muammolar va yetishmayotgan omillar

Mazkur yoʻnalish boʻyicha oʻrtacha indeks 45.4 ballni tashkil etdi. Dissertatsiya ishini bajarishda uchrayotgan muammolar va ilmiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun yetishmayotgan omillar boʻyicha javoblar ushbu yoʻnalishda manzilli chora-tadbirlar zarurligini koʻrsatadi. Asosiy eʼtibor ilmiy maqola tayyorlash, metodologik maslahat, vaqt va yuklama muvozanati, resurslarga kirish hamda hujjat jarayonlarini soddalashtirishga qaratilishi kerak.

Savol	Juda yuqori/yaxshi %	Past/qoniqarsiz %	Indeks
24	30.1%	14.4%	46.1
25	36.3%	13.7%	44.7

5. Kuchli jihatlar

— Ilmiy rahbarlik jarayonining muntazamligi va maslahatlarning amaliy ahamiyati respondentlar tomonidan yuqori baholangan.

— Doktorantura dasturining umumiy samaradorligi va dasturdan qoniqish darajasi ijobiy koʻrsatkichlarga ega.

— Axborot-resurs markazi, elektron ilmiy adabiyotlar va axborot-xizmat koʻrsatish tizimi boʻyicha asosiy sharoitlar mavjud.

— daraja.ilmiy.uz platformasidan foydalanish va dissertatsiya jarayoniga oid normativ axborotning ochiqligi boʻyicha ijobiy baholar ustun.

— Dissertatsiya mavzusini shakllantirish va tadqiqot metodologiyasi boʻyicha maʼlum darajada metodik qoʻllab-quvvatlash mavjud.

6. Takomillashtirish talab etiladigan yoʻnalishlar

— Ilmiy maqola tayyorlashdagi qiyinchiliklarni kamaytirish uchun maqola yozish, jurnal tanlash va tahrir madaniyati boʻyicha tizimli mentorlik joriy etish.

— Hujjat aylanishi, topshirish muddatlari va maʼmuriy jarayonlarni soddalashtirish hamda raqamlashtirish.

— Tadqiqot infratuzilmasi, laboratoriya, arxiv va maʼlumotlar bazalaridan foydalanish boʻyicha aniq yoʻriqnoma va masʼullar tizimini kuchaytirish.

— Oʻquv, ilmiy va tashkiliy yuklamalar muvozanatini monitoring qilish hamda doktorantlar uchun ilmiy ishga ajratilgan vaqtni himoyalash.

—Ilmiy manbalarni izlash, tanlash, tahlil qilish va bibliografik menejment dasturlaridan foydalanish bo'yicha amaliy treninglarni kengaytirish.

7. Amaliy tavsiyalar va chora-tadbirlar

Yo'nalish	Chora-tadbir	Mas'ullar	Muddat	Kutilayotgan natija
Ilmiy axborot resurslari	Scopus, Web of Science, Google Scholar, ResearchGate va elektron Axborot-resurs markazi resurslari bo'yicha amaliy seminarlar tashkil etish.	Ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi, Axborot-resurs markazi	Har semestr	Ilmiy manbalarni izlash va tanlashdagi qiyinchiliklar kamayadi.
Maqola yozish va nashr jarayoni	Doktorantlar uchun maqola yozish, jurnal tanlash, plagiat tekshiruv va xalqaro nashr etikasi bo'yicha mentorlik dasturini joriy etish.	Ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi, kafedralar	Doimiy	Xalqaro va milliy nashrlar sifati oshadi.
Ilmiy rahbarlik	Ilmiy rahbar-doktorant uchrashuvlarini rejalashtirish va qisqa monitoring kartalarini yuritish.	Kafedralar, ilmiy rahbarlar	Har oy	Rahbarlik jarayoni muntazam va natijador bo'ladi.
Metodologik tayyorgarlik	Tadqiqot metodologiyasi, statistik tahlil va akademik yozuv bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish.	O'quv-uslubiy boshqarma, kafedralar	2026-yil	Tadqiqot sifati va mustaqil ilmiy ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.
Hujjat aylanishi	Dissertatsiya jarayoniga oid hujjatlar, muddatlar va namunalarni yagona elektron papka yoki platformada jamlash.	Ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi, AKT markazi	2026-yil	Ma'muriy jarayonlar soddalashadi.
Tadqiqot infratuzilmasi	Laboratoriya, arxiv, ma'lumotlar bazalari va hamkor tashkilotlardan foydalanish tartibini yo'nalishlar kesimida aniqlashtirish.	Fakultetlar, kafedralar	2026–2027	Tadqiqot uchun zarur sharoitlardan foydalanish samaradorligi ortadi.
Yuklama muvozanati	Doktorantlarning ilmiy ish, o'quv va tashkiliy vazifalari bo'yicha yuklama monitoringini yo'lga qo'yish.	Kafedralar, Ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi	Har semestr	Dissertatsiya ishini muddatida bajarish imkoniyati kuchayadi.
Qayta aloqa	Doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar bilan har semestr yakunida anonim so'rovnoma va ochiq muloqot o'tkazish.	Ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi	Har semestr	Muammolar erta aniqlanadi va tezkor choralar ko'riladi.

8. Yakuniy xulosa

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim jarayonlari bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari 146 nafar respondent fikrini qamrab oldi. Natijalar doktorantura va mustaqil izlanuvchilik jarayonlarida ilmiy rahbarlik, umumiy dastur samaradorligi va axborot-resurs ta'minoti bo'yicha ijobiy holat mavjudligini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, ilmiy maqola tayyorlash va nashr jarayonida metodik yordamni kuchaytirish, hujjat aylanishi va ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish, tadqiqot infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini oshirish hamda yuklama muvozanatini ta'minlash dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Mazkur tavsiyalar asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar oliy ta'limdan keyingi ta'lim sifatini oshirish, dissertatsiya ishlarini muddatida va sifatli bajarish hamda ilmiy natijadorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.